

## QAVCHIN QABILASINING KELIB CHIQISHI VA MOVAROUNNAHRGA JOYLASHUVI XUSUSIDA

**Annotatsiya.** Mo'g'ul qabilalari qadimgi davrlardan boshlab ko'chmanchi hayot tarzidagi xo'jalik yuritib, keng yaylovlarda urug'-qabilalarga bo'linib yashaganlar. Ushbu urug'-qabilalar yagona xalqqa birlashmagan, tarqoq holda yashagan bo'lsada, ko'plab xalqlarning etnogenezida faol ishtirok etganlar. O'rta asrlar davrida bir qator saltanatlar tarkibida bo'lgan mo'g'ul qabilalari milodiy XIII asr boshida Chingizxon boshchiligida ulkan saltanatga asos solganlar. Tarixda ilk bor mo'g'ul urug'-qabilalari yagona bir davlatga birlashgan edilar. Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullar Movarounnahr va unga tutash mintaqalarga ham kirib kelib o'rnatish jarayonlari sodir bo'lib, bir qator xalqlar singari O'zbek xalqi etnogenezida ham faol ishtirok etganlar. Chig'atoy ulusi shakllangan vaqtdan boshlab, amir Temur va temuriylar davrigacha bo'lgan davr ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotda mo'g'ullar mutloq ustunlik qilgan davr bo'lib, ular orasida Qavchin qabilasining ham o'rni alohida o'ringa ega. Ammo, Qavchin qabilasining kelib chiqishi xususida turli qarashlar mavjud bo'lib, ushbu qabilani ayrim tarixchilar dastlab harbiy qo'shinlarning imtiyozli qismi bo'lgani holda keyinchalik qabila sifatida shakllangan degan ilmiy xulosalarga kelgan bo'lsa, boshqalar qavchinlarni qadimgi mo'g'ul qabilalaridan ekanligini asoslashga uringanlar.

**Kalit so'zlar:** Qo'shin, istilo, o'zaro urush, migratsiya, ulus, Chig'atoy ulusi, quriltoy, yaylov, ko'chish, aymoq, qabila, urug', yashash joy

## О ПРОИСХОЖДЕНИИ ПЛЕМЕНИ КАВЧИН И ЕГО РАССЕЛЕНИИ В МОВАРУННАХРЕ

**Аннотация.** Монгольские племена с древнейших времён вели кочевой образ жизни, обитая на обширных пастбищах, разделившись на роды и племена. Хотя эти роды и племена не объединялись в единую нацию, живя разрозненно, они активно участвовали в этногенезе многих народов. В Средние века монгольские племена, входившие в состав ряда царств, основали огромную империю под предводительством Чингисхана в начале XIII века н.э. Впервые в истории монгольские роды и племена объединились в единое государство. Монголы под предводительством Чингисхана также проникли и расселились в Мавераннахре и прилегающих регионах и, как и ряд других народов, активно участвовали в этногенезе узбекского народа. Со времени образования Чигатайского улуса до эпохи Амира Темура и Тимуридов монголы абсолютно доминировали в социально-экономической и политической жизни, и племя кавчинов также занимало особое место среди них. Однако существуют различные точки зрения на происхождение племени кавчинов: одни историки приходят к научному выводу о том, что это племя изначально было привилегированной частью войск и позднее оформилось в племя, другие же пытаются обосновать тот факт, что кавчины являются одним из древних монгольских племён.

**Ключевые слова:** Армия, завоевание, междоусобная война, миграция, улус, чигатайский улус, Курултай, пастбище, переселение, Аймак, племя, клан, место жительства

## ON THE ORIGIN OF THE QAVCHIN TRIBE AND ITS SETTLEMENT IN MOVARUNNAHR

**Annotation.** Since ancient times, the Mongol tribes have led a nomadic lifestyle, living in vast pastures, divided into clans and tribes. Although these clans and tribes did not unite into a single nation, living scattered, they actively participated in the ethnogenesis of many peoples. In the Middle Ages, the Mongol tribes, which were part of a number of kingdoms, founded a huge empire under the leadership of Genghis Khan at the beginning of the 13th century AD. For the first time in history, the Mongol clans and tribes were united into a single state. The Mongols led by Genghis Khan also entered and settled in the Transoxiana and adjacent regions, and, like a number of other peoples, they actively participated in the ethnogenesis of the Uzbek people. From the time of the formation of the Chigatai ulus to the era of Amir Temur and the Timurids, the Mongols absolutely dominated socio-economic and political life, and the Qavchin tribe also had a special place among them. However, there are different views on the origin of the Qavchin tribe, and some historians have come to the scientific conclusion that this tribe was initially a privileged part of the military troops and later formed as a tribe, while others have tried to substantiate the fact that the Qavchins are one of the ancient Mongol tribes.

**Keywords:** Army, invasion, civil war, migration, ulus, Chigatai ulus, kuriltai, pasture, migration, region, tribe, clan, place of residence.

**Kirish.** XIII asr boshlarida Movarounnahr va unga tutash mintaqalar Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qabilalari tomonidan istilo qilingan. Bu istilo shunchaki navbatdagi bosqin emas, butun boshli davlatchilik va etnik o'zgarishlarni boshlab yuborgan yurtimiz tarixida yangi bosqich bo'lgan. Mo'g'ullar istilosi va hukumronligi davrida ko'plab urug'-qabilalar Movarounnahrda kirib kelib joylashganlar. Ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida ayrim yangi qabilalar shakllangan, ayrimlari yo'qolib borgan. Mo'g'ullar istilosi va hukumronligi davrida katta mavqega ega bo'lgan Qavchin qabilasi hususida tarixiy adabiyotlarda keltirilgan fikr-mulohazalar turlicha bo'lib, ushbu ilmiy munozaraga o'z qarashlarimizni keltirib o'tishni lozim deb hisoblaymiz.

Adabiyotlarga sharh. Mavzuni mazmunan yoritishda biz adabiyotlarni shartli ravishda guruhlariga bo'lib, ularni quyidagi tartibda sharhlashni lozim deb topdik. birinchi guruhdagi adabiyotlarda o'sha davrga yaqin bo'lgan va manbaviy ahamitga ega asarlar bo'lib, bu guruhga Zahiriddin Muhammad Bobur va uning "Boburnoma" asarini shuningdek, Boburning xolavachchasi bo'lgan Muhammad Haydar mirzo qalamiga mansub "Tarixi Rashidiy" asarini keltirib o'tishni lozim deb topdik. bu asarlar eng avvalo dastlabki manba bo'lib, keltirilgan ma'lumotlar aniqligi bilan ham ahamiyatli bo'lib hisoblanadi. bundan tashqari adabiyotlarning ikkinchi guruhi sifatida sobiq sho'rolar davridagi adabiyotlarni keltirib, asosan bu guruhga V.V. Bartold va G.E. Grumm-Grjimaýlo asarlarini kiritdik. V.V. Bartold asarlarida asosan turk-mo'g'ul qabilalari va ularning Turkiston hududini istilo qilishi va hukumronligi davriga oid ma'lumotlar arab, fors manbalari asosida yoritib berilgan bo'lsa, G.E. Grumm-Grjimaýlo davr tarixiga tarixiy-geografik nuqtai-nazardan yondashgan va asosan Xitoy yilnomalari va mo'g'ul an'alariga oid ma'lumotlar tahlilini keltirgan. Mustaqillik yillarida ushbu mavzu yuzasidan K.Shoniyozov va A.Asqarovlarning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, postsovet davlatlarida Qavchin qabilasiga oid tadqiqodlar asosan O.K. Karaev va A.Ochirning izlanishlarida keltirib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin.

Natijalar va mulohazalar. Chingizxon boshchiligida mo'g'ullarni Movarounnahrni istilo qilishi va Chig'atoy ulusi tarkibiga kiritilishi mintaqada keyingi yuz ellik yilliq chingiziylar hukumronligini o'rnatgan edi. Bu tarixiy davr O'zbek xalqining shakllanishi uchun muhim bosqich bo'lib, Movarounnahrda turk-mo'g'ul qabilalarining kirib kelishi kuchaygan. Chig'atoy ulusi mavjudligi dastlabki davrida siyosiy barqarorlik mavjudligi sababli turk-mo'g'ul qabilalarining Movarounnahr etnik jarayonlariga aralashuvi sekinlik bilan sodir bo'lgan. Ammo, XIII asrning 60-yillari so'nggida, O'qtoyning nabirasi Xaydu o'zaro kurashlarda Chig'atoy ulusining bir qismini Chig'atoy nabirasi Baroqxondan tortib olishga muvofiq bo'lgan. Tortib

olingan hududlar Ettisuv va Talas vodiysi bo'lib, Chig'atoyxonga xizmat qilish uchun berilgan mo'g'ul qabilalari aksar qismi shu hududdagi yaylovlarda ko'chib yashagan. 1269 yilgi Talasdagi quriltoyda Chig'atoyga berilgan to'rt ming qo'shin ya'ni to'rt qabila vakillari Movarounnahr hududiga ko'chishga majbur bo'lganlar. Chig'atoyxon bilan kelgan to'rt qabila vakillari har biri ming kishidan iborat bo'lib, bu qabilalar Barlos, Jaloyir, Arlot, Qavchin qabilalari bo'lganlar. Talasdagi quriltoyga qadar ular Chig'atoyxon qarorgohi yaqinida Ili daryosi chap sohilida, Ettisuv va Sharqiy Turkistonning g'arbiy qismlarida joylashganlar[14. 384]. XIII asr 60-yillari oxirida Movarounnahrda kelib o'rnatilgan turk-mo'g'ul qabilalari o'zlarining ko'chmanchi chorvadorchilikka asoslangan xo'jalik turiga sodiq qolishga harakat qilganlar. Shu sababli ular cho'l va cho'loldi, tog' va tog'oldi hududlarga tarqalib yashay boshlaganlar. Masalan, arlotlar hozirgi shimoliy Afg'oniston hududida, jaloyirlar Xo'jand atroflarida, barloslar Shahrisabz va unga tutash hududlarda yashay boshlaganlar. Ammo, qavchinlar qaerda o'z yaylovlariga ega bo'lganliklari ko'pgina tarixiy adabiyotlarda keltirilmagan. Akademik V.V. Bartold esa, Ali Yazdiy "Zafarnoma"sidan iqtibos keltirib, qavchinlar qabila sifatida emas, balki xonning shaxsiy soqchilari sifatida talqin qilgan[2. 34]. Ya'ni qavchinlar askariy bo'linma sifatida ko'rsatilgan. A.Asqarov esa, XIII asr 60-yillari oxiridagi Movarounnahr hududiga kelib o'rnatilgan qabilalar yashagan hududlarni keltirib o'tar ekan, qavchinlar Farg'ona vodiysi va Qashqadaryoning G'uzor tumani hududlariga kelib o'rnatilganliklarini keltirib o'tgan. A.Asqarov qavchinlarni qabila sifatida talqin etib, Amir Temur davrida qavchinlar saltanatning eng ishonchli vakillari bo'lganligi, ushbu qabila vakili hisoblangan Musiqqa qavchinga Amir Temur Xorazim boshqaruvini topshirganligi va shu tariqa Xorazimga ham qavchinlarning ko'chib o'tishi sodir bo'lganligini keltirib o'tgan[13. 458-459]. Tarixiy adabiyotlarda qavchinlar xususidagi fikr-mulohazalar turlicha bo'lib, V.V. Bartold asarlarida ham bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, V.V. Bartold Qavchin dastlab qabila bo'lmay xonning shaxsiy qo'shinlari, o'rdani qo'riqchilari shunday nomlangan degan, ma'lumotlarni yazdiy keltirib o'tgan[3. 172]. Ushbu fikrdan dastlab qavchin qabilasi bo'lmagan degan xulosa kelib chiqadi. Ammo, o'z izlanishlari davomida qavchinlar qo'shinining imtiyozli qismi bo'lib, urug' ma'nosini ham bildirgan boshlagan. Chunki, Movarounnahrni boshqargan birinchi mustaqil amir Qazag'an qavchinlardan bo'lgan, degan ma'lumotlarni ham keltirib o'tgan[4. 168]. Akademik V.V. Bartold keltirgan ushbu fikr-mulohazalaridan qavchinlarni Movarounnahrda ko'chib kelgan turk-mo'g'ul qabilalari orasidan xon o'rdasini qo'riqlash uchun saralab olingan askarlar guruhi degan xulosa kelib chiqadi. Shuningdek, ushbu xulosalarni tarixiy manbalardagi fikr-mulohazalar ham tasdiqlaydi. Jumladan, o'sha davr tarixchilaridan bo'lgan Muhammad Haydar Mirzo (1499-1551 yy) o'zining "Tarixi Rashidiy" asarida Sharqiy Turkiston aholisini ijtimoiy guruhlari haqida ma'lumotlar keltirib, tuman-dehqonlar, raiyat-xonga soliq to'lovchilar, Qavchin-qo'shin, aymoq-ko'chmanchilardan iborat tarzida keltirib o'tganligini ko'rishimiz mumkin[12. 175]. Bundan tashqari kelib chiqishi Dug'lat qabilasi etakchilaridan bo'lgan Haydar mirzo qavchinlarni "ota-bobolarim boshqarib kelgan[10. 418]" degan julalarni ham qayd qilib o'tganligini keltirib o'tishimiz mumkin. Bu esa, Qavchin atamasi qabila emas, balki qo'shin ya'ni xon saroyini qo'riqlash, xonga xizmat qiladigan qo'shinning imtiyozli maxsus qismdan iborat degan xulosalarni qat'iylashtiradi. Shuningdek, xon o'rdasida xizmat qilgan qavchin askarlar keyinchalik shu yaqin atrofdagi qabilalar vakillariga uyланib borib, sekin-asta qabila darajasiga o'sib chiqqan deb xulosa qilish mumkin.

Qavchinlarni qo'shin aymoq-ko'chmanchilardan iborat tarzida keltirib o'tilgan ilmiy izlanishlarga duch kelish mumkin. Ularni qo'shin va aymoq sifatida T.I. Sultonov izlanishlarida ko'rish mumkin[12. 175]. Shu o'rinda aymoq atamasini tushinib olish maqsadga muvofiq. Aymoq sharqiy turklar va mo'g'ullar orasida tarqalgan so'z bo'lib, qabilaviy ittifoqni anglatgan. Bir necha kuchsiz qabila vakillari birlashib, kuchli qabilalarga qarshi tura oladigan kuchga birlashishini bildirgan atama. Masalan, hozirgi Shimoliy Afg'onistonda chor yoki chahor aymoq tushunchasi bo'lib, bu aymoqqa jamshidiylar, hazoralar, firizkuhi va teman qabilalari birlashganligini ko'rish mumkin[3. 489]. Qavchinlarni aymoq tarzida keltirilishi esa, haqiqatdan ham bir necha kuchsiz turk-mo'g'ul qabilalarini birlashgan ittifoqi degan xulosalarga ham sabab bo'ladi. Qavchinlarning Chig'atoy ulusida dastlab mo'g'ullar hukumronligi, keyinchalik Amir Temur va temuriylar

saltanati davrida katta siyosiy va harbiy qudratga egaligiga qaramay ularni kelib chiqishi va Movarounnahrda kirib kelishiga oid qarashlar turlicha. Tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar esa bir-birini inkor qilishini ko'rish mumkin. Jumladan, ayrim tarixiy adabiyotlarda, qavchinlar turk-mo'g'ul qabilalari sifatida Chig'atoy ulusi tashkil topgandan boshlab mavjud bo'lganligiga oid ma'lumotlarni keltirib o'tgan. O.K. Karaev Chingizxon o'z o'g'illariga meros taqsimlaganda, ularga xizmat qilishi uchun urug'-qabilalarni ham me'ros qilib qoldirganligini keltirib, Chig'atoyxon xizmatiga tayinlangan qabilalar orasida qavchinlar ham bo'lganligini qayd etib o'tgan[9. 129]. Shuningdek, xuddi shu kabi fikr-mulohazalar boshqa tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin[8. 37]. Ushbu ikki tarixiy adabiyot yuqorida keltirilgan qavchinlarni dastlab qo'shin yoki qo'shinning imtiyozli tabaqasidan o'sib chiqqan qabila degan, xulosalarni rad etadi.

O'zbek xalqining etnik kelib chiqishi muammosi bilan uzoq yillar shug'ullangan taniqli tarixchi olimlar K.Shoniyozov, A.Asqarovlar Qavchin qabilasi vakillari O'zbekistonning asosan Farg'ona vodiysi va G'uzordaryo atroflarida yashaganliklarini keltirib, Qavchin atamasi etnik nomdan tashqari harbiy unvonni ham anglatishiga oid qarashlarini keltirib o'tganlar[14. 387; 1. 256]. Ammo, ushbu fikr ham qavchinlarni qabila yoki harbiy qo'shin ekanligi masalasiga aniqlik kirtmagan. T.I. Sultonov esa, yuqorida keltirib o'tilganidek, qavchinlarni qabila sifatida talqin etib, ular yashaydigan hududlar sifatida Farg'ona va G'uzordaryo havzalaridan tashqari Amudaryoning yuqori oqimi havzalarini ham keltirib o'tgan[12. 157]. Agar, Qavchin atamasi dastlab qo'shin yoki qo'riqchi ma'nosini bildirib, keyinchalik qabila darajasiga o'sib chiqqan bo'lsa, XIII asrning 60-yillari oxirida, ya'ni 1227-1269 yillar oralig'ida qandaydir 41 yil davomida Farg'ona, G'uzor va Amudaryo yuqori oqimi (hozirgi Tojikiston) hududlariga qadar joylasha oladigan katta qabila bo'la olishi mumkin bo'lmagan. Bu esa, Qavchin qabilasining Movarounnahr mo'g'ul ulusi tarkibiga kirmagan davrlarda mavjud bo'lganligini ko'rsatib beradi.

Temuriylar davrida qavchin qabilalari Movarounnahrda siyosiy jarayonlarga faol ishtirok etganlar. Jumladan, qavchinlardan bo'lgan amir Qosim Zahriddin Muhammad Boburning eng ishongan amiri sifatida tilga olingan. Boburning xolavachchasi bo'lgan "Tarixi Rashidiy" asarining muallifi Haydar mirzo uni Boburga ota o'rnidagi ishonchli kishi sifatida keltirib o'tgan[10. 358]. Zahiriddin Muhammad Boburning o'zi esa "Boburnoma" asarida Qosimbek qavchinni o'zining eng ishonchli begi ekanligini ta'kidlab, unga Andijonning qadimiy qo'shin beklaridan deb ta'rif bergan[5. 71; 6. 16]. Ammo, Farg'onada Bobur hukumronlikni qo'lga kiritgunga qadar Do'ltoy qabilasi siyosiy etakchi bo'lib, Boburning otasi vafotidan keyin Do'ltoy qabilasi vakillari Hasan Yaqub tomonidan Boburning ukasi Jahongir mirzoni taxtga o'tqazishga muvofaqqiyatsiz uringanlar. Natijada siyosiy etakchilik Boburga sadoqatlarini saqlab qolgan Qavchin qabilasi vakillari qo'lga o'tgan[6. 25]. Bir so'z bilan aytganda qavchinlar mo'g'ullar istilosi davrida Movarounnahrda kirib kelgan qabilalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Movarounnahrda Chingizxon va uning avlodlari hukumronligi davrida ko'plab turk-mo'g'ul qabilalari kirib kelgan bo'lib, ular o'zbek xalqini shakllanishida faol ishtirok etganlar. Tarixchi olim E.Grumm-Grjimaýlo Chig'atoy ulusi hududlariga kirib kelgan va mintaqalari etnogenezida muhim rol o'ynagan qabilalar xususida quyidagilarni keltirib o'tgan. Turk, turklashgan dinlin qabilalari: qang'li, qipchoq, qirg'iz, uyg'ur, qorluq, arg'in, alachin, to'qiz, yuz, kuchin (Qavchin) (bu esa qavchinlarni qabila sifatida mo'g'ullar istilosidan avval ham bo'lganligini ko'rsatib beruvchi yana bir fakt) bo'lsa, turk, mo'g'ul yoki tungus xalqlariga mansub bo'lgan: kerait, nayman, xitoy, bargut qabilalari, sof mo'g'ul qabilalari xorlos, nukuz, qiyot, jaloir, oyrat, do'rbet, ongut, tatar, xonkirat, mang'it, xatagin qabilalari, kelib chiqishi munozarali hisoblangan mekrin, ming, kenegas, kingit qabilalari o'zbek xalqi shakllanishida katta ta'sir ko'rsatganligini qayd etib o'tgan[7. 531-533]. Shuningdek, qavchin qabilasini Chingizxon istilosiga qadar bo'lganligini keyingi tadqiqodlar ham ko'rsatib bermoqda. Taniqli mo'g'ulshunos olim A.Ochir olib borgan izlanishlari natijasida qavchin qabilasi mo'g'ul tilida Xavchin (Qovchin) deb nomlanishi, ushbu atama turkcha qopqon ma'nosini berishini keltirib, 1207 yilda Jo'jixon o'rmon xalqlarini bo'yinsundurgan vaqtda xavxanas qabilasi sifatida tilga olib o'tilganligini qayd etgan[11. 183]. Demak, Qavchin qabilasi E.Grumm-Grjimaýlo keltirib o'tganidek, qadimgi Dinlin

- 32 qabilalaridan biri bo'lib, keyinchalik turklashgan va mo'g'ullar istilosi davrida Chig'atoy ulusi hududlariga kirib kelgan deb xulosa qilish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bir qator turk-mo'g'ul qabilalari va ularning kelib chiqishini uzoq tarixiy davr va murakkab siyosiy ziddiyatlarga to'la davr, etnik jarayonlar murakkab kechganligi sababali aniqlash o'ta mushkul bo'lib hisoblanadi. shuningdek, urug'-qabilalarning turkcha va mo'g'ulcha atalishlari, ayrim etnonimlarni toponimlarga yoki aksincha toponimlarni etnonim nomlariga aylanib borishi kabi murakkab jarayonlarni anglash lozim bo'lib, bu kabi murakkab muammolarni hal qilish kelajakdagi vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи (ўқув-қўлланма). – Т.: Университет 2007. – 339 б.
2. Бартольд В.В. Сочинения. Том II. Часть 2. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. – М.: Наука, 1964. - 657 с.
3. Бартольд В.В. Сочинения. Том V. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. – М.: Наука, 1966. – 756
4. Бартольд В.В. Тюрки: Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. - Алматы: Жалын, 1993. – 192 с.
5. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Т.: Ўзбекистон фанлар академияси нашриёти, 1960. – 512 б.
6. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома: [Ўрта-ёшдаги мактаб боалари учун] / [Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев; муҳаррир А.Ўктам]. – Т.: Юлдузча, 1989. – 368 б.
7. Грумм-Гржимайло Г.Е. Западная Монголия и Урянхайский край. Том второй. Исторический очерк этих стран в связи с историей Средней Азии. // Л.: 1926. – 900 с.
8. Источниковедение истории Улуса Джучи, Золотой Орды: от Калки до Астрахани, 1223-1556. - М.: Мастер Лайн, 2002. - 430 с.
9. Караев О.К. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. – Бишкек, 1995. – С. 129 с.
10. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий / Т аржимонлар: Ваҳоб Раҳмонов, Янглиш Эгамова, Масъул муҳаррир: академик Азиз Қаюмов / - Т.: Sharq, 2010. - 720 б. +32 зарв.
11. Очир А. Монгольские этнонимы: вопросы происхождения и этнического состава монгольских народов. Элиста: КИГИ РАН. 2016. – 286 с.
12. Султанов Т.И. Чингиз-хан и чингизиды. Судьба и власть / Турсун Икрамович Султанов. – М.: АСТ: АСТ МОСКВА, 2006. - 445, [1] с.
13. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи / А.Асқаров. – Т.: О'zbekiston, 2015. – 680 б.
14. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни / Таҳрир ҳайъати Д.А. Алимова, Э.Ф. Арифханова, У.С. Абдуллаев ва бошқ. – Т.: Шарқ, 2001. – 44 б.